

**TO'RTKO'L TUMAN AXBOROT – KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI**

**UMRBOQIY HIKMATLAR
(Turkman xalq shoiri Maxtumquli asarlaridan)
TAVSIYA RO'YXATI**

To'rtko'l - 2023

KIRISH.

Maxtumquli Firog'iy XVIII asr Turkman adabiyotining buyuk shoirlaridan biri. U nainki, Turkman adabiyoti, ayni paytda, jahon badiiy so'z san'atiga, xususan, turkiy xalqlar adabiyotida ham nomi, ijodi hurmat bilan tilga olinadigan, qadrlanadigan shoirardan sanaladi. Maxtumquli ijodidan namunalar hozirgi O'zbekiston hududiga asosan XIX asrdan boshlab kirib kelgan va ommalasha boshlagan. Shoir ijodiga qiziqish xalq orasiga tobora kuchayib boravergan Maxtumquli she'rlarining xalfalar, baxshilar va hofizlar repertuaridan keng o'rin egallashi va mahorat bilan kuylanishi shoirni xalqqa yanada yaqinlashtirdi. Axborot – kutubxona markazida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Axborot – bibliografiya xizmati tomonidan Maxtumquli asarlaridan tavsiya ro'yxati ishlab chiqildi.

Tavsiya ro'yxati 3 bo'limdan iborat:

1. Maxtumquli hayoti va ijodi.
2. Maxtumquli g'azallari.
3. Maxtumquli asarlarining o'lmas merosi.

MAXTUMQULI HAYOTI VA IJODI.

Ulug' Turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli 1724 yili Atrek daryosi bo'yidagi Xojigovshan ovulida tug'ilgan. Uning ilk ustozlari Ozodiy taxallusi bilan she'rlar yozgan otasi Davlatmamad edi. Oilada xat-savodini chiqargan bo'lajak shoir taxminan olti yoshidan ovul maktabida-Niyozsolih mulla o'qiy boshlaydi. O'tkir zehni tirishqoqligi bilan o'quvchilar orasida alohida ajralib turgan Maxtumquli keyin Qiziloyoq (hozirgi Chorjuy viloyati, Xalach tumani)dagi Idris bobo madrasasida tahsilini davom ettiradi. So'ng Xivaning Sherg'ozixon madrasasida ilmini kamolga yetkazadi. Shuningdek bir muddat Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida ham o'qigani haqida rivoyatlar mavjud.

Maxtumquli badiiy so'zni yuksak qadrlagan va ijodiy qobiliyatiga ega ma'rifatli oilaga mansub. Atrek janubidagi viloyatda tug'ilgan bobosi (voqean, uning ismi ham Maxtumquli bo'lgan-shoirlar bobosining otini berishgan) tirikchilik vajidan turkmanlarning gurko'z qabilasiga ish izlab keladi va uning boshliqlaridan birining qo'lida yollanib ishlaydi. Ma'lum muddat o'tib xujayin uni o'z jiyaniga uylantirib quyadi va u alohida xo'jalikning boshlig'igiga aylanadi. Dehqonchilik qilish bilan birga, otga to'qim tikish, qamchi to'qish, yugan va ayil yasash orqali daromadini muttasil oshira borib, Maxtumquli Yonachi (to'qimchdo'z) nomi bilan dovrug' taratadi. Bo'sh qolgan vaqtlarida u qo'shiqlar to'qigan va ulardan biri bizgacha yetib kelgan. Otasi Davlatmamad ham alohida qobiliyati bilan ajralib turar edi.

U boshlang'ich ma'lumotini ovulda olib, so'ng Xiva madrasalarida o'qishini davom ettiradi. Ovulga qaytgach, bolalarni o'qitish bilan birga, qishloq xujaligi bilan

shug'ullanadi. Agar bobosi uchun she'r to'qish shunchaki xavas bo'lgan bo'lsa, otasi xaqiqiy shoir bo'lib yetishadi. U Ozodiy taxallusi bilan ko'plab qo'shiq va g'azallar yaratadi. Uning qariyb 6 ming misradan iborat pand-nasihat mazmunidagi "Vaz'i Ozod" ("Ozod vaz'i") nomli dostoni saqlanib qolgan. Bu asarlar ozodiyning forsiy (voqean, u yaxshigina shoxnomaxon bo'lgan) va turkiy adabiyotdan, xususan, Alisher Navoiy ijodidan yetarli darajada xabardorligini ko'rsatadi. Davlatmamadning oilasi katta bo'lib, Maxtumquli uning uchinchi o'g'li hisoblanadi. Bo'sh vaqtlarida poda boqib, otasiga kumaklashgan Maxtumquli 9 yoshidan she'r mashq qila boshlaydi. Turkman xalqi tarixining eng notinch va og'ir davrida yashab o'tgan Maxtumquli oilaviy xayotda ham halovat topmadi. Chovdurxon boshchiligidagi Afg'onistonga vakil qilib junatilgan akalari Abdulla va Muhammadsafo dushmanlar tomonidan shavqatsiz o'ldiriladi. Katta xonadonning butun og'irligi Maxtumquli yelkasiga tushadi. U mudarrislik qilish, ota-bobosidan meros yonachilik kasbini davom ettirish bilan birga, temirchilik va zargarlik xunarlarini ham egallaydi. "Gozal Sherg'oz" she'ridan ma'lum bo'lishicha, u Xivada taxsil olayotgan davrida birin-ketin otasi va onasidan judo bo'lgan:

Komil bo'lib, saranjomlik qilibman,
Mashaqqat-la ul padardan qolibman,
Ka'bamdan ayrilib, judo bo'libman,
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal Sherg'oz!

MAXTUMQULI G'AZALLARI.

Maxtumquli ijodining Turkman adabiyoti tarixidagi o'rni, uning o'zbek-turkman adabiy aloqalar sohasidagi ahamiyati B. Qoriyev, G. Choriyev, M. Koseev, U. Abdullayev, A. Qilichdurdiyev kabi taniqli turkman olimlarining ilmiy ishlarida qaqlamga olingan. Iste'dodli turkman shoirining o'zbeklar o'rtasidagi obro'-e'tibori, uning joshqin she'riyati professor J. Sharipov, Q. Tohirov va K. Kuramboyev kabi o'zbek olimlarining ishlarida ham tadqiq etila borgani maroqli bir holder. Maxtumquyli asarlarining mavzulari, janriy xususiyatlari, shakily o'ziga xosligi, asarlari tilining nihoyatda xalqchilligi bilan ko'p asrlik Turkman adabiyotini yangi bir bosqichga ko'tardi. Pand- nasihat Maxtumquli ijodining muhim yo'nalishi bo'lib, shoirning bizgacha yetib kelgan poetic merosi o'sha davr adabiy hayotining hamma mavzularini qamrab oladi. Zotan, Maxtumquli ijodining xalqchilik kasb etib, ravnaq topib borushida Sharq lirikasi an'analari bilan bir qatorda turkiy qo'shiqlar, folklor murabballari shaklidagi ijod namunalarining o'rni katta bo'ldi. Maxtumquli Navoiyning lirika sohasidagi an'alaridan ko'p bahramand bo'ldi. Ustozning g'azal va muxammaslari uslubida manzur asarlar yaratdi. O'z asarlarida go'zallik timsoli bo'lgan mahbuba siymosini chuqur muhabbat bilan chizadi. Maxtumquli go'zalga "Oltinmisan, kumushmisan, namasan?", "Yo yoqutmi, yo marjonmi, durmisan?" deb

savol bilan murojaat etadi. Maxtumquli “Fattoh” deb atalgan hajviy asarida shunday shaxslarning umumlashma obrazini yaratgan deb aytish mumkin.

Sen turkmanning elin gulin so’ldirding,
Qonlar to’kib g’ozal yurtim to’ldirding,
Shahid bo’lganlarning boshin qoldirding,
Unutarsan taxti ravonni, sen Fattoh.

Muhtoj aylama

Qodir Jabbor, sendan tilagim ko’pdir,
Sen meni nomardga muhtoj aylama.

Xazinangdan bergil, mening rizqimni,
Bandangni bandangga muhtoj aylama.

Adashtirma, to’g’ri yo’lim egriga,
Egrini tenglama, hargiz to’g’riga,
Kishi moli nasib etmas o’g’riga,
Halolni haromga muhtoj aylama.

Nomard ko’prigidan o’lsam, o’tmasman,
Karvon bo’lsam, halol ishdan qaytmasman,
Qo’lidan bir kosa sharob ichmasman,
O’ng qo’lni chap qo’lga muhtoj aylama,
Yaxshi niyat ,sendan tilagim ko’pdir,
Achchiq so’zlar tildan chiqchaqn bir o’qdir,
Tuqqanning tuqqangha bahosi yo’qdir,
Og’ani, iniga muhtoj aylama,
Maxtumquli, Haqdan tila borini,
Tilar bo’lsang, tila imoningni,
Obod ayla, ikki ko’zim nurini,
O’ng ko’zim chap ko’zga muhtoj aylama.

Yog’iydir, yog’iy

Dunyo, dushman turar, g’ofil odamzod

Mol bilan ovladi, yog'iydir, yog'iy.
O'n sakkiz ming derlar, kulli olamni,
Gunohi, fasodi yog'iydir, yog'iy.
Qul, qorabosh moling, oting, eshaging,
Ot, yarog'- asbobing, to'ning, to'shaging,
Segili xotining, o'g'ling- ushog'ing,
Dunyoning bor zoti yog'iydir, yog'iy.
Dunyo bir saroydir- soz bilan suhbat,
Sipohiga- dasgoh, shohl;arga shavkat,
Shohlardan aylansa arkoni- davlat,
Barisi aylandi, yog'iydir, yog'iy.
Ot qarisa qolar, to'ydan, bayroqdan,
Bo'ri tishdan qolar, burgut tirnoqdan,
Boylar past ko'rinar quldan, qirnoq,
Bandisi, ozodi, yog'iydir, yog'iy.
Qabrda yorilar bag'ring pudagi.
Joningga balodir hassosi- sog'i.
Yigitlik mavsumi yetishgan chog'I,
Tegsa xazon bodi, yog'iydir, yog'iy.
Maxtumquli, haqiqatdan suz soz'ing,
"O'ng ko'zimsan" desang, tirnar chap ko'zing,
Mosuvoni tashlab, qo'ygil mijozing,
Bir Haqdan o'zgasi yog'iydir, yog'iy.

MAXTUMQULI ASARLARINING O'LMAS MEROSI.

Maxtumquli she'rlari mazmunligi va latif badiiyligi bilan o'ziga mangulik haykalini qo'ydi. Asarlaridan birida o'ziga xitob qilib: "Go'zal dostonlaringni elingga baxshida qil " deb yozgan edi. Shunga ko'ra shoirning merosi davrlar osha Turkman xalqi ardog'ida yashab kelmoqda. Shoir turkmanlar orasida mashhur donishmand adib sifatida nom qzongan bo'lsa, o'zbekning ham eng sevimli shoiri sifatida ma'lum bo'lib ketgandir. Turkmaniston fanlar Akademiyasining qo'lyozma fondida

Maxtumduli asarlarining yuzga yaqin nusxasi to'plangandir. Uning "Tanlangan asarlari " tarjimashunos J. Sharipov tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, 1958 yilda Toshkentda chop etilgan edi. 1976 yilda "Maxtumduli she'riyatidan " nomi bilan yangidan nashr yuzini ko'rdi. O'zbekistonda shoir ijodi yuzasidan bir qator tadqiqotlar e'lon qilingan. Har subhidam havo to'liqlarida Lutfiy va Alisher Navoiy qo'shiqlari sirasida o'zbeklar uchun sevimli bo'lib qolgan Maxtumduli qo'shiqlarini ham eshitamiz. Maxtumduli haqida kinofim, spektakl va badiiy asarlar yaratilgan. Maxtumduli XVIII asrning 80- yillarida vafot etgan. Uning qabri tug'ilgan yurti- Atrek (Atrok) bilan Sangitog' orasidadir. Shoir otasi Ozodiy yoniga dafn etilgan. Maxtumduli odamzodning daedu armonlari bilan yashab, o'z ma'rifati bilan barcha xalqlarga sevimli bo'lgan valiy shoirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxtumduli. Oshiqlar Xaq ishqinda/ Saralangan she'rlar/ Toshkent, " Zilol buloq " nashriyoti, 2020.-352b.
2. Maxtumduli. Saylanma. [Matn]/ Maxtumduli; tarjimon: M. Pirriyev.-2- nashri. Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2018.-272 b.
3. Maxtumduli. Saylanma.[Matn]/ Maxtumduli; tarjimon: M. Kenjabek.- Toshkent: " Fan", 2004.- 256b.
4. Yag'mur O. Maxtumdulinoma [Matn]: buyuk Maxtumduli asarlari asosida yozilgan roman-tadqiqot / O. Yag'mur ; turkmanchadan tarj. M. Ahmad, R.Jabbor.- Toshkent: "O'zbekiston"NMIU, 2016.-208b.
5. Maxtumduli. Tom I [Matn] Tarjimon: G. Matyaqubova.- Nukus: AVANGARD- BASPA, 2022.-316b.
6. Maxtumduli. Tom II [Matn] Tarjimon: G. Matyaqubova.- Nukus: AVANGARD- BASPA,2022.- 316b.

Tuzuvchi:

Axborot-bibliografiya xizmati

bibliografi:

M. Ro'zimbetova.